

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№ 4
maxsus son

2025
IYUL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
36 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Nostandart bandlikning asosiy shakllari: ijtimoiy inklyuziya va iqtisodiy diversifikatsiya vositasi sifatida	10
Zuxra Abdikarimova, Saida Eshchanova	
“Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O‘zbekiston modeli”	16
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o‘g‘li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o‘g‘li	
Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida turizm sohasini yaxshilash va hududiy raqobatbardoshlikni ta’minlashning yarim zamonaviy yo‘nalishlari	20
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Sekinlashayotgan iqtisodiyot fonida Yaponiya va Xitoy o‘rtasidagi sanoat raqobati: sifat va nusxaning to‘qnashuvi	24
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
O‘zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish (Navoiy viloyati misolida)	31
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o‘g‘li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich	



O'ZBEKISTONDA HUDUDLARNING SOLIQ SALOHIYATINI ANIQLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)



Poyonov Otabek Abdixoxor o'g'li

Oriental universiteti talabasi

Elektron pochta: Otabekpoyonov9191@gmail.com

ILmiy rahbar:

Almardonov Muxamadi Ibragimovich

Oriental universiteti professori, i.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududlarining soliq salohiyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish masalasi ko'rib chiqilgan. Amaldagi yondashuvlardagi muammolar, xususan ma'lumotlar yetishmasligi, hududlar o'rtasidagi tafovutlar va prognozlashdagi aniqlik kamchiliklari tahlil qilingan. Mualliflar taklif etgan metodologik yechimlar – ekonometrik modellar, GIS texnologiyalari, mintaqaviy taqqoslash va mahalliy boshqaruvni faollashtirish orqali soliq bazasini kengaytirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Navoiy viloyati misolida olib borilgan statistik tahlil asosida hududiy tafovutlar aniqlangan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq salohiyati, fiskal siyosat, iqtisodiy faollik, byudjet barqarorligi, iqtisodiy tahlil, Navoiy viloyati.

Abstract: This article examines the improvement of the methodology for assessing the tax potential of Uzbekistan's regions. It analyzes the shortcomings of current approaches, including data scarcity, interregional disparities, and limited forecasting accuracy. The authors propose enhanced methods based on econometric modeling, GIS technologies, regional benchmarking, and increased engagement of local authorities. A statistical analysis conducted in Navoi region reveals local disparities and offers practical recommendations to better utilize fiscal capacity.

Keywords: tax potential, fiscal policy, economic activity, budget stability, economic analysis, Navoi region.

Аннотация: В статье рассматривается совершенствование методологии оценки налогового потенциала регионов Узбекистана. Проведен критический анализ действующих подходов, выявлены проблемы, связанные с нехваткой данных, межрегиональной дифференциацией и низкой точностью прогнозирования. Предложены современные решения, включая эконометрические модели, технологии ГИС, региональное сопоставление и усиление роли местных органов управления. На примере Навоийской области проведен статистический анализ, выявлены различия между районами и даны практические рекомендации.

Ключевые слова: налоговый потенциал, фискальная политика, экономическая активность, бюджетная стабильность, экономический анализ, Навоийская область.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojini ta'minlash, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish va mahalliy moliya tizimi mustahkamligini oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, budjet daromadlarining manba bazasini kengaytirish, mahalliy budjetlarning fiskal mustaqilligini ta'minlash va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashda hududlarning soliq salohiyatini to'g'ri va haqqoniy baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va hududlararo muvozanatni ta'minlash imkonini bersa, boshqa tomondan, soliq siyosatini manzilli va adolatli yuritishga zamin yaratadi.



Amaldagi baholash mexanizmlarida asosan yirik soliq tushumlari, yalpi hududiy mahsulot yoki aholining rasmiy daromadlari kabi omillar asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Biroq bunday yondashuvlar hududlar imkoniyatlarini to'laqonli aks ettirmasligi, norasmiy iqtisodiyot ulushi, sektorlar bo'yicha daromadlar farqlari, infratuzilma darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligini yetarli hisobga olmasligi mumkin. Shu sababli hududlarning soliq salohiyatini aniqlashda kompleks, ko'p omilli, zamonaviy statistik va ekonometrik yondashuvlarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mazkur maqolada aynan ushbu ehtiyojdan kelib chiqib, O'zbekiston hududlari soliq salohiyatini baholash metodologiyasini chuqur tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Shuningdek, maqolada soliq salohiyatining konseptual asoslari, xalqaro tajribalar va ular asosida hududiy fiskal barqarorlikni kuchaytirishning ilmiy-amaliy jihatlari ham o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarning soliq salohiyatini aniqlash masalasi iqtisodiy geografiya, fiskal siyosat va hududiy rivojlanish tadqiqotlarida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Soliq salohiyati — bu hududda mavjud iqtisodiy resurslardan soliqqa tortish orqali olinishi mumkin bo'lgan daromadlar salmog'ini aniqlovchi kompleks ko'rsatkichdir. Mazkur tushuncha va uni o'lchash uslublari ko'plab olimlar tomonidan iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Xalqaro miqyosda soliq salohiyatini baholashga oid metodikalar fiskal tenglik va hududlararo transfer mexanizmlarini asoslashda muhim o'rin egallaydi. R. Bahl va J. Martinez-Vazquez ushbu sohada olib borgan tadqiqotlarida hududiy fiskal imkoniyatlarni baholashda ko'p omilli indekslar, soliq bazasi tarkibi va yashirin iqtisodiyot omillarini hisobga olish zarurligini urg'ulagan. Ayniqsa, ular tomonidan ishlab chiqilgan "Representative Revenue System" yondashuvi AQShda shtatlar o'rtasidagi soliq salohiyatini tahlil qilishda keng qo'llaniladi.

Yevropa Ittifoqi davlatlari tajribasida ham hududlar fiskal salohiyatini aniqlashda yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, bandlik darajasi va ko'chmas mulk bozori o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Masalan, P. Spahn Yevropa davlatlarida byudjetlararo tenglashtirish tizimlarining asosiy elementi sifatida soliq salohiyati ko'rsatkichlarining aniq va uzviy hisoblanishini ta'kidlagan.

O'zbekiston misolida esa bu yo'nalish hali yetarlicha chuqur ishlanmagan. Shunga qaramay, bir qator mahalliy olimlar tomonidan hududlar fiskal imkoniyatlarini baholashga oid izlanishlar olib borilgan. Sh. Abdurahmonovning soliqqa tortish tizimidagi hududiy farqlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarida, hududlar iqtisodiy ko'rsatkichlaridagi nomutanosibliklar va ularning soliq tushumlariga ta'siri tahlil qilinadi. U o'z ishlarida hududiy ishlab chiqarish hajmi, sektorlar tarkibi, soliqqa tortish intizomi va to'lov madaniyati kabi omillarning alohida e'tiborga loyiq ekanligini ko'rsatgan.

Bundan tashqari, M. Bekmurodov va A. Soliyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatini hisobga olish zarurati, me'yoriy-huquqiy asoslar va fiskal barqarorlik ko'rsatkichlari muhokama qilingan. Ularning izlanishlari hududlar byudjetlarining daromad qismini shakllantirishdagi muammolarni aniqlash va mahalliy fiskal siyosatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan ishlab chiqilgan hududiy fiskal tahlil metodikalari soliq salohiyati va xarajat ehtiyojlarini birgalikda baholashga imkon beruvchi zamonaviy vositalarni taklif qiladi. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston tajribasida amaliy tatbiq etilishi mumkin bo'lgan asosli model hisoblanadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlashda zamonaviy, ko'p omilli, iqtisodiy-statistik modellarni joriy etish, xalqaro tajribalarni milliy kontekstga moslashtirish orqali metodologik takomillashtirishga erishish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi va Soliq qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasidan olingan. Hududlar bo'yicha soliq tushumlari, yalpi hududiy mahsulot, ishbilarmonlik faolligi ko'rsatkichlari jamlanib, ko'p omilli regressiya va klaster tahlili usullarida iqtisodiy-statistik tahlil asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq salohiyati – bu hududlar iqtisodiy salohiyatining fiskal ifodasidir. U davlat byudjetining barqarorligi, mahalliy iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda mahalliy byudjetlarning mustahkamligi va hududlar o'rtasidagi fiskal nomutanosibliklarni bartaraf etishda soliq potentsialini to'g'ri baholash strategik ahamiyat kasb etadi.



Ushbu tahliliy qismda soliq salohiyati tushunchasi, uning mavjud metodologik muammolari, taklif etilayotgan yechimlar va Navoiy viloyati misolida amaliy holat keng tahlil qilinadi.

Avvalo, soliq salohiyati deganda, hudud miqyosida olinishi mumkin bo'lgan maksimal soliq tushumlari miqdori tushuniladi. Bu nafaqat hozirgi mavjud tushumlarni ifodalaydi, balki iqtisodiy o'sish imkoniyatlari, ishlab chiqarish faolligi, aholining daromadlari, mulk va resurslardan foydalanish samaradorligi kabi omillarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni, bu tushuncha yashirin resurslarni ochish, iqtisodiy faoliyatni legallashtirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, uni to'g'ri baholash, bir tomondan, real byudjet prognozlarini shakllantirishga, ikkinchi tomondan, fiskal siyosatning manzilli va adolatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Amaldagi metodologiyada bir qator muammolar mavjud. Eng avvalo, statistik ma'lumotlarning muntazam yangilanmasligi, hududlar kesimida tizimli raqamli monitoring tizimining yo'qligi tahlil sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha soliq tushumlari prognozi avvalgi yillarning ko'rsatkichlariga tayanadi, bu esa iqtisodiyotda yuz berayotgan strukturaviy o'zgarishlar, yangi sektorlarning paydo bo'lishi yoki faollashuvi, norasmiy sektor ulushi kabi jihatlarni to'liq qamrab ololmaydi. Shuningdek, hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining turlicha bo'lishi, ishlab chiqarish infratuzilmasining teng taqsimlanmagani ham yagona yondashuvni qo'llashda murakkabliklar tug'diradi.

Shu muammolarning yechimi sifatida bir necha metodologik takliflar ilgari surilishi mumkin. Eng avvalo, iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, xususan YalM, bandlik darajasi, mulk qiymati, tadbirkorlik subyektlari soni, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmlari kabi indikatorlar bo'yicha to'liq va tizimli ma'lumotlar bazasi shakllantirilishi lozim. Bu ma'lumotlar har chorakda yangilanib, ochiq foydalanish uchun taqdim etilishi kerak. Ikkinchidan, statistik axborotlar asosida ekonometrik modellar tuzilib, soliq tushumlarini aniqroq prognozlash imkoniyati yaratiladi. Bu modellar regressiya tahlili, korrelyatsion bog'liqliklar va sezgirlik tahliliga asoslanishi mumkin. Uchinchi jihat, geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyalari yordamida hududlar iqtisodiy faolligi interaktiv xaritalarda aks ettirilib, soliq bazasi va faoliyat turlari bo'yicha vizual tahlil o'tkazilishi mumkin. Bu usul qaror qabul qiluvchi organlarga aniqlik, tezkorlik va manzillilikni ta'minlab beradi.

Shuningdek, manfaatdor tomonlar – mahalliy hokimliklar, soliq idoralari, ilmiy muassasalar va tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim. Ular birgalikda ma'lumot almashish, strategiyalar ishlab chiqish va hududiy o'zgarishlarga mos keluvchi prognoz mexanizmlarini shakllantirishda faol ishtirok etishlari kerak. Yana bir muhim yo'nalish – hududiy taqqoslash tizimini joriy qilish. Ya'ni O'zbekistonning turli viloyatlari soliq salohiyati bo'yicha qiyoslab tahlil qilinadi, yoki xorijiy tajribalar – masalan, Qozog'iston, Turkiya yoki Polsha singari davlatlarning hududiy fiskal boshqaruv uslublari o'rganilib, ulardan moslashtirilgan yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Ushbu metodologik takliflarning amaliy ahamiyatini ko'rsatish maqsadida Navoiy viloyati misolida 2025-yil 2-choragiga oid soliq tushumlari tahlil qilindi. Reja bo'yicha viloyatda mazkur chorakda jami 627 742,5 mln so'm soliq tushumi prognoz qilingan. Biroq aprel oyida shundan atigi 216 484,7 mln so'm, ya'ni 34,5% qismi bajarilgan. Bu past ko'rsatkich viloyatda mavjud soliq salohiyati to'liq ishga solinmaganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tumanlar kesimidagi tafovutlar iqtisodiy struktura, sanoat korxonalari mavjudligi va soliq intizomi bilan bog'liq.

Masalan, Uchquduq, Navbahor va Qiziltepa tumanlarida reja bajarilishi nisbatan yuqori – 45–49% atrofida bo'lgan. Bu tumanlarda yirik korxonalar faoliyati, foydali qazilmalar sanoatining rivojlanganligi, iqtisodiy aylanish tezligi yuqoriligini bildiradi. Aksincha, Nurota va Konimex tumanlarida reja bajarilishi nisbatan past – 36–37% atrofida (1-jadval).

1-jadval. Navoiy viloyati tumanlar kesimida 2025-yil uchun soliq prognozlari va ularning bajarilganlik darajasi

Hudud	Reja prognoz (mln.so'm)	Amalga oshgan (mln.so'm)	Bajarilish (%)
Navoiy shahri	27 158,0	10 642,9	39,2%
Zarafshon shahri	7 389,0	3 377,1	45,7%
Uchquduq tumani	3 130,0	1 534,8	49,0%
Konimex tumani	3 586,0	1 348,6	37,6%
Qiziltepa tumani	14 454,0	6 834,6	47,3%
Tomdi tumani	1 191,0	463,7	38,9%
Navbahor tumani	10 264,0	5 077,9	49,5%
Xatirchi tumani	15 237,0	6 003,7	39,4%
Nurota tumani	5 886,0	2 122,7	36,1%
Karmana tumani	15 725,0	7 079,0	45,0%
G'ozg'on tumani	891,0	366,2	41,1%



Tahliliy jihatdan olganda, bu ko'rsatkichlar hududlarda soliq salohiyatining to'liq ishga solinmagani, lekin qo'shimcha resurslar mavjudligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ba'zi tumanlarda yangi iqtisodiy loyihalarni jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish va xizmatlar sohasini kengaytirish orqali soliq tushumlarini oshirish imkoniyati mavjud. Bunda real vaqt monitoring tizimi, ilg'or axborot texnologiyalari va raqamli platformalar asosida doimiy prognozlash tizimini joriy qilish zarur bo'ladi.

Kelgusi davr uchun bir necha tavsiyalar ilgari surilishi mumkin. Avvalo, yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash va uni soliqqa jalb etish orqali soliq bazasini kengaytirish kerak. Buning uchun ko'p hollarda norasmiy ishlayotgan subyektlarni rasmiylashtirish, yengillashtirilgan ro'yxatdan o'tkazish tizimlari va soliq imtiyozlari joriy etilishi mumkin. Ikkinchidan, past tushumli hududlarda biznes muhiti va infratuzilmani yaxshilash, erkin iqtisodiy zonalarni yaratish, kredit va sug'urta imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Uchinchidan, har chorakda soliq tushumlari va iqtisodiy faollik bo'yicha tahliliy hisobotlar ishlab chiqilib, barcha hududlar bo'yicha ochiq e'lon qilinishi maqsadga muvofiq. Bu hududlararo raqobatni kuchaytiradi, javobgarlikni oshiradi va resurslar samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat – mahalliy boshqaruv organlari salohiyatini oshirish. Buning uchun soliq tahlili, fiskal prognozlash, iqtisodiy monitoring yo'nalishlarida seminar va treninglar tashkil etish lozim. Bu orqali joylardagi mutaxassislar zamonaviy vositalar bilan ishlash, tahliliy fikrlash va real tavsiyalar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq salohiyatini chuqur, tizimli va ilmiy asosda baholash – bu shunchaki fiskal jarayon emas, balki hududlar iqtisodiy salohiyatini to'liq safarbar qilish, byudjet barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni qaror toptirishga xizmat qiluvchi muhim strategik vositadir. O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuv ayniqsa dolzarb bo'lib, mintaqalar o'rtasidagi fiskal nomutanosibliklarni kamaytirish, soliq tushumlarining prognoz aniqligini oshirish va yashirin iqtisodiy faoliyatni legallashtirish orqali umumiy fiskal tizim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Metodologiyani zamonaviy statistika, ekonometrik modellar, geografik axborot tizimlari (GIS) va real vaqt monitoring vositalari bilan takomillashtirish orqali nafaqat soliq bazasining kengayishi, balki soliqqa tortish tizimining adolatli, shaffof va hisobdor bo'lishi ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida mahalliy boshqaruv organlarining moliyaviy mustaqilligini kuchaytiradi, aholining byudjet siyosatiga ishonchini oshiradi hamda ijtimoiy loyihalarning barqaror moliyalashtirilishini kafolatlaydi.

Takomillashgan metodologiya yordamida davlat nafaqat raqamlar o'sishiga erishadi, balki iqtisodiy boshqaruvda sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi. Hududlar salohiyati obyektiv baholanishi natijasida investitsiyalarni manzilli yo'naltirish, rivojlanishdan ortda qolayotgan tumanlarga ko'mak berish va resurslarni optimal taqsimlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Shunday qilib, soliq salohiyatini aniqlash bo'yicha ilg'or yondashuvlarni joriy etish O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida muhim burilish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon mamlakatni yanada barqaror, inklyuziv va raqobatbardosh iqtisodiy kelajak sari ishonch bilan yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bahl, R., & Martinez-Vazquez, J. The Determinants of Revenue Performance – World Bank, 2007.
2. Spahn, P. B. Equity and Efficiency Aspects of Intergovernmental Fiscal Transfers. — Inter-American Development Bank, 2007.
3. Abdurahmonov, Sh. Hududlarning iqtisodiy salohiyati va soliqqa tortish tizimi. — T.: Iqtisodiyot, 2019.
4. Bekmurodov, M., & Soliyev, A. Mahalliy byudjetlar va ularning daromad manbalari. — T.: Fan va texnologiya, 2020.
5. World Bank. Measuring Fiscal Capacity and Effort of Subnational Governments. – Washington, 2014.
6. IMF. Fiscal Decentralization and Inclusive Growth. – Washington, 2021.
7. Martinez-Vazquez, J., & Timofeev, A. Approaches to Measuring Fiscal Capacity. – International Center for Public Policy, Georgia State University, 2015.
8. OECD. Revenue Statistics in Asian Countries. – Paris: OECD Publishing, 2022.
9. Musaeva, G. Soliq tizimini isloh qilish va fiskal barqarorlik. — T.: Moliya, 2018.
10. European Commission. Regional and Urban Development: Cohesion Policy and Fiscal Equalization. – Brussels, 2020.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

4-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100